

**INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK  
TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK  
TADQIQI**

*Diyarov Akmal To'lqin o'g'li*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

**АНГЛИЙСКИЕ САДОВОДЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ**

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ**

**ИССЛЕДОВАНИЕ**

*Дияров Акмал Тулкинович*

*Преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандинского  
государственного университета*

**ENGLISH HORTICULTURAL TERMS LEXICAL-  
SEMANTIC STUDY**

*Diyarov Akmal To'lqin o'g'li*

*Teacher of Kattakurgan branch of Samarkand state university*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilidagi bog'dorchilikka oid terminlarining leksik-semantik tadqiqotlarning ayrim jihatlari, jumladan, mavzuviy guruhlarga bo'lish imkonini beruvchi leksik munosabatlari va so'zlarning Grammatik jihatdan tegishli bo'lgan qismlarga bo'linishi o'rGANiladi. Bundan tashqari bog'dorchilik terminlarining semantikasi va ular bilan bog'liq sintaksisi o'rtasidagi xaritalash muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** gulzor, qishki bog', ekish, yig'ish, o'g'itlash.

**Аннотация:** В данной статье изучаются некоторые аспекты лексико-семантического исследования садоводческих терминов в английском языке, в том числе лексические отношения, позволяющие разделить их на тематические группы и деление слов на грамматически значимые части. Кроме того, обсуждается сопоставление семантики садоводческих терминов и связанного с ними синтаксиса.

**Ключевые слова:** цветник, зимний сад, посадка, сбор урожая, подкормка.

**Abstract:** In this article, some aspects of the lexical-semantic research of gardening terms in the English language, including lexical relations that allow dividing them into thematic groups and the division of words into grammatically relevant parts, are studied. In addition, the mapping between the semantics of horticultural terms and their associated syntax is discussed.

**Key words:** flower garden, winter garden, planting, harvesting, fertilizing.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Leksik – semantika so'z ma'nolarining o'ziga xos tomonlari va so'zlar o'rtasidagi semantik munosabatlari, shuningdek, so'z ma'nosining sintaktik tuzilishi bilan bog'lanish usullari bilan shug'ullanadi. Ushbu faslda ingliz tilidagi bog'dorchilikka oid terminlarining leksik-semantik tadqiqotlarning ayrim jihatlari, jumladan, mavzuviy guruhlarga bo'lish imkonini beruvchi leksik munosabatlari va so'zlarning Grammatik jihatdan tegishli bo'lgan qismlarga bo'linishi

o'rGANiladi. Bundan tashqari bog'dorchilik terminlarining semantikasi va ular bilan bog'liq sintaksisi o'rtasidagi xaritalash muhokama qilinadi. Ma'lumki, semantika lingvistik ma'noni o'rganuvchi ta'limot sanaladi. Mazkur ta'limot leksikalarning ma'no anglatishini, leksik birliklarning bog'liq jihatlarni chuqr o'rganadi. Bundan tashqari ushbu ma'nolarni o'rganish orqali jarayonda sense (ichki ma'no) va reference(haqiqiy ma'no) kabi tushunchalar semantik tadqiq jarayonida tushunilishi kerak bo'lgan asosiy



E-mail:

[diyarov.tulkin@bk.ru](mailto:diyarov.tulkin@bk.ru)

<https://orcid.org/0009-0008-4027-1506>

shartlardan biridir. Demak, aytish joizki, ikki tushuncha butunlay ikki xil ta'limotni ilgari surishini inobatga oлган holda, ular o'rtasidagi farq, albatta, semantikada alohida tahlilni keltirib chiqaradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Bog'dorchilik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari ushbu terminlarning tuzilishi, ta'rifi va kengroq semantik sohada bog'lanish usullarini o'z ichiga oladi. Bunday terminlar o'simlik biologiyasi va uni yetishtirish hamda bog'dorchilik amaliyotining aspektlarini o'z ichiga oлган, o'ziga xos lingvistik ma'noga asoslangan xususiyatlarga ega. Odatda ushbu sohaga oid bo'lgan terminlar ko'pincha ixtisoslashgan bog'dorchilik va o'simlikshunoslik matnlarida foydalilanadi. Shu nuqtayi nazaridan bog'dorchilik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari ko'ra, mazkur sohaga oid terminlar doimiy foydalilanadigan faol lug'atda umumiy ma'noni ifodalasa, bog'dorchilik sohasida esa xususiy belgi va ma'nolarni bildiradi. Xususan, misol tariqasida keltiriladigan bo'lsa, *graft* – leksik birligi (payvand) umumiy ma'noda *mashaqqatli mehnat* ma'nosida kelishi mumkin, qolaversa, bu atama farqli o'laroq, bog'dorchilik sohasida o'simliklarni birlashtirish jarayonini anglatadi. O'z o'zidan ko'riniб turibdiki, bir biriga yaqin bo'lмаган ma'nolarni anglatmoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur leksik birlikda omonimlik belgisi borligidan dalolat beradi [6].

### MUHOKAMA

**(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Bog'dorchilik terminlarining tadqiqi jarayonida bir leksik birlikning turli ma'nolari borligini aniqlanish erishildi, ya'ni bog'dorchilik terminlarida ham polisemmatik xususiyat uchrashini kuzatish mumkin. Xususan, ingliz tilidagi *bed* leksikasining ma'nosi *yotoq* ni anglatadi. Ya'ni odatda insonlar dam olish uchun ma'lum belgilangan joy, lekin bog'dorchilikda ham *bed* tushunchasining ham nisbatan ma'nosи borligi, lekin shunday bo'lsa ham, *yotoq* ma'nosiga ishora ekanligiga urg'u berish zarur. *Flower bed* birikmasi tahlil qilinadigan bo'lsa, to'g'ridan to'g'ri tarjima qiladigan bo'lsa, *gul to'shagi* ya'ni o'simliklar yetishtirilgan ma'lum bir joyni anglatadi [2].

O'z-o'zidan ko'riniб turibdiki, ikkala *bed* leksik birligi bir xil ma'noni anglatmoqda. Bundan tashqari, barcha uchun tanish bo'lgan, *train*

lug'atlarda keltirilgan ma'nosi *mashq qilmoq* yoki *poyezd transport* vositasi bo'yicha tarjima keltirilgan, lekin hattoki bog'dorchilik sohasida ham ushbu leksik birlikning boshqa ma'nosi borligini ko'rish mumkin. Ya'ni mazkur birlikning yuqorida keltirilgan mashg'ulot ma'nosidan uzoqlashmagan holda bog'dorchilikka aloqador bo'lgan *tok kesishni mashq qilmoq* tarzida ma'no anglatishini ko'rish mumkin. Ko'riniб turganidek, polisemantik munosabatda ayrim kundalik tarzida foydalilanadigan leksikalar bir xil ma'no anglatmoqda. Leksik-semantik tahlil jarayonda bir holatda urg'u berish joizki, iyerarxiж tuzilishda ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlari giperonimlik va giponimlik strukturasini ham hosil qilishi mumkin [5].

Jumladan, *plant* – tushunchasi giperonimlik hosil qilsa, *tree, shrub, vine* kabi leksik birliklar plant leksik birligining giponimlari hisoblanadi.

Yana bir misol keltiradigan bo'lsak, *fertilizer* giperonim sanaladi, mazkur atamining giponimlari esa *organic fertilizer* va *organic fertilizer* kabi birliklarni olishimiz mumkin. Ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlari orasida bir nechta terminlarning bir ma'no ya'ni sinonimlik hosil qilish holatlarini uchratish mumkin. Aytish mumkinki, tushunchalarning barchasi hududiy joylashuv, rasmiylik va maxsus foydalaniшhga ko'ra, bir ma'no anglatadi [1].

Xususan, *greenhouse* va *conservatory* kabi leksik birliklar bir xil ma'no hosil qiladi, lekin umuman olganda *conservatory* termini odatda *bezak* ma'nosini beradi.

*Pruning* va *trimming* kabi leksik birliklarning ikkalasi ham o'simlik qismlarini kesishga ishora qiladi, lekin harakatning usuli yoki sababiga qarab biroz farq qilishi mumkin. Bundan tashqari ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlarining ma'nosiga ko'ra antonimlik hosil qilish xususiyati ham mavjud bo'lib, unda juftliklar bir biriga zid ma'nolarni anglatadi.

Masalan, *annual (bir yillik)* – *perennial (ko'p yillik)*, *deciduous (bargi to'kiladigan)* – *evergreen (doimiy yashil)*; *sowing (ekish)* – *harvesting (yig'ish)*, *fertilize(o'g'itlash)* – *deplete (yo'q qilish)*;

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlarining ba'zilari tabiatan metaforik xususiyatlarga ega deyilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Aniqroq aytildigan bo'lsa, kundalik hayotdan

olingen tasvirlarga asoslangan. Ushbu terminlarga misol tariqasida deadheading va root leksik birliklarini keltirish mumkin.

*Deadheading – so‘ligan o‘simplikni sug‘irib olish* ma’nosida kelishi mumkin, lekin metaforik jihatdan *dead* leksik birligi bilan ko‘p ma’nolilik hosil qilayoganligini guvohi bo‘lish mumkin [3].

*Root* - lug‘atlarda keltiriladigan tarjimasi bog‘dorchilikdagi o‘simpliklarning ildizi tarzida ham qo‘llaniladi, lekin bu terminning yana bir ma’nosи, morfologiyaga borib taqaladi. Ya’ni leksik birlikning asosi ma’nosida ham qo‘llanilishi mumkin. Semantik maydon terminidagi “maydon” tushunchasi G.Ipsen tomonidan tanishtirilgan bo‘lib, ushbu termin ma’no birliklarini hosil qiladigan so‘zlar guruhidan iborat. Semantik maydon nazariyasi esa V.Gumboldt va H.Osthof tomonidan rivojlantirilgan. Semantik maydonlar leksemalar va ular o‘rtasidagi sinonim, antonim, hiponim hamda meronim aloqalardan tashkil topgan semantik guruhlar sifatida qaraladi. Keyingi tahlilga tortiladigan ingliz tilidagi bog‘dorchilik terminlarini blok metoddan foydalangan holda har birini ma’nosи keltiriladi. Ya’ni har bir tahlilga tortiladigan terminlarning leksik kategoriyasi, semantik xususiyatlari, semantik maydoni, denotativ va konotativ ma’nolari, sinonim va giponim hamda omonimlik xususiyatlari, pragmatik xususiyatlari hamda polisemantik tuzilishiga ko‘ra tahlilga tortiladi [2].

Xususan, Winterize – *qishlash* ma’nosini anglatib, bog‘dorchilik terminlari orasida o‘simpliklar va bog‘tuzilmalarini sovuq havodan himoya qilish orqali qish mavsumiga tayyorlashni anglatadi. Semantik xususiyati jihatdan harakat shaxs tomonidan amalga oshiriladi va ta’siri obyektga nisbatan o‘tkaziladi. Semantik maydoni esa ushbu termin qishga aloqador bo‘lganligi uchun sovuq havo va mavsumiy o‘zgarishga tayyorlanish sifatida qo‘llaniladi. Ushbu terminning sinonimlari bir so‘z bilan ifodalangan bo‘lmaydi, balki murakkab birikmalar bilan belgilanadi: *prepare for winter, winter-proof, winter-prep.*

Giponimik qatori esa quyidagi so‘zlarni ichiga oladi: *insulate, add, antifreeze, cover, seal.*

Ushbu atamaning antonimi ya’ni o‘ziga zid ma’nosи sifatida de – winterize leksik birligini olish mumkin.

*Winterize* – leksik birligi ma’lum bir

polisemantik ma’noga ega emas, lekin turli sohalarga nisbatan ishlatilishi mumkin, masalan, avtomobillar, uylar, tashqi jihozlar.

*Variegated* – termining leksik-semantik xususiyati tahlil qilinadigan bo‘lsa, leksik kategoriya bo‘yicha sifat so‘z turkumiga mansub bo‘lgan bu terminning ma’nosи *turli ranglar bilan bo‘yalgan* deganini bildiradi. Bog‘dorchilik terminlari orasida tashqi ko‘rinish nuqtayi nazardan o‘simplik to‘qimalarining rang-barangligiga ishora qiladi.

Mazkur terminga sinonim sifatida *multicolored, mottled, streaked, striped, spotted* kabi leksik birliklarni ishlatish maqsadga muvofiq [6].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa qilib aytganda tadqiqot natijasida erishilgan tipologik xususiyatlar va umumlashmalarни atrof-muhit sharoitlari, biologik omillar, ijtimoiy tarixiy hamda madaniy sharoitlar bilan tushuntirish mumkin. Shu asnoda, semantik tipologiyaning pragmatika va ijtimoiy lingvistika bilan aloqasi yuzaga chiqadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Chierchia G., McConnell-Ginet, S. Meaning and grammar: An introduction to semantics (2nd ed.). Cambridge, MA: MIT Press. Lewis, D. 1972.
2. Davidson D., G. Harman. General semantics. Semantics of natural language. 1972. – pp. 169–218.
3. Hitchings Henry. The Secret Life of Words: How English Became English, – London: John Murray. – 2008.
4. Masimova L. Words of native origin in english. the origin of english words. common indo-european and germanic word-stock. Characteristic features of native words. – P. 27-32.
5. Stanforth Anthony W. “Effects of language contact on the vocabulary: an overview”. In: Cruse, D. Alan et al. (eds.) – 2002 an international handbook on the nature and structure of words and vocabularies. Berlin / New York: Walter de Gruyter.
6. Usmonova G. Etymological survey of the english vocabulary, native and borrowed words. / Academic research in educational sciences. SJIF 4.804. 2020. – P.858-861.